

“BEKOLE-BIZNES” MCHJ tomonidan

«GAZel Next mikroavtobusini xarid qiling – 5 million yutib oling» aksiyasini o‘tkazish qoidalarini

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «GAZel Next mikroavtobusini xarid qiling– 5 million yutib oling» (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) nomli aksiya “BEKOLE-BIZNES” MCHJ korxonasi reklama aksiyasi doirasida o‘tkazilmoqda– ushbu tashkilot «Коммерческие Автомобили – Группа ГАЗ» (Nijniy Novgorod, Rossiya) MCHJning O‘zbekiston Respublikasidagi rasmiy distribyutoridir. Aksiya “BEKOLE-BIZNES” MCHJ tomonidan O‘zbekistonda sotiladigan GAZ avtomobil ruzumlariga mijozlar e‘tiborini jalb etishga qaratilgan.
2. Aksiya lotereya yoki tavakkalga asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavfga ega emas, va mazkur Qoidalariga muvofiq o‘tkazilmoqda. Aksiyaning o‘tkazish jarayoni ishtirokchilarning badal to‘lashi bilan bog‘liq emas va Aksiyaning sovrinlar jamg‘armasi faqat “BEKOLE-BIZNES” MCHJ mablag‘lari hisobiga shakllantiriladi.
3. Mazkur Qoidalar Aksiyada ishtirok etuvchi shaxslar doirasi, Aksiyada ishtirok etish maqsadida Aksiya shartlarini bajarish shartlari va tartibi, Aksiya G‘olibini aniqlash tartibi, shuningdek, Aksiya sovrinlarini olish tartibi, manzili va muddatlarini belgilaydi.
4. Aksiya tashkilotchisi “BEKOLE-BIZNES” MCHJ hisoblanadi, uning turar joyi/manzili: Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko‘chasi, 58-uy.
5. Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko‘chasi, 58-uy.
6. Aloqa-markaz telefon raqami: +99 71 2006161

II. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATLARI VA JOYI

7. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri hududida o‘tkaziladi.
8. Aksiya 1 noyabr 2020 yildan 31 yanvar 2021 yilgacha davom etadi.
9. Sovrinli o‘yinlar har oy, hisobot davridan keyingi har oyning 10-sanasiga qadar o‘tkaziladi (masalan, noyabr yakunlariga ko‘ra, o‘yin 10 dekabr qadar o‘tkaziladi).
10. GAZ avtomobillarini 31 yanvar 2021 yildan keyin xarid qilgan mijozlar o‘yinda ishtirok etmaydi.
11. Avtomobil narxini 100% to‘lamagan mijozlar o‘yinda ishtirok etmaydi.

III. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

12. Aksiyada Aksiya o‘tkazilish davrida “BEKOLE-BIZNES” MCHJ orqali GAZel Next mikroavtobusini xarid qilgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etadi, shu orqali ular Aksiya ishtirokchisiga aylanadi.
13. GAZel Next mikroavtobus/lariga 100% lik to‘lov amalga oshirilishi kerak.
14. O‘yinda Aksiya davrida GAZel Next mikroavtobuslarini xarid qilgan barcha mijozlar ishtirok etadi. Agar hisobot davri natijalariga ko‘ra, ishtirokchi g‘olib bo‘la olmasa, u Aksiya davridagi keyingi o‘yinlarda ishtirok etmaydi (masalan: mijoz 2020 yilning noyabr oyida GAZel Next mikroavtobus/larini xarid qildi, dekabr oyidagi o‘yin yakunlariga ko‘ra esa g‘olib bo‘la olmadi, bu vaziyatda mijoz “BEKOLE-BIZNES” MCHJ tomonidan 10 yanvargacha va 10 fevralgacha o‘tkaziladigan o‘yinlarda ishtirok etmaydi).
15. Aksiyada “BEKOLE-BIZNES” MCHJ xodimlari va ularning qarindoshlari ishtirok eta olmaydi.

16. Aksiyada ishtirok etish orqali Aksiya ishtirokchilari mazkur Qoidalarga to'liq roziligini bildiradi.

17. Aksiya ishtirokchisi tomonidan mazkur Qoidalarga amal qilinmasa, sovrin berilmaydi. Sovrinni topshirish, olish/foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish, sovrinni qaytarib olish yoki almashtirish Tashkilotchi yoki vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshirilmaydi.

18. Aksiya Ishtirokchilari sovrinni olish uchun, mazkur Qoidalarga muvofiq, Aksiyani o'tkazish muddatidan boshlab, sovrinni olganlikni tasdiqlovchi hujjatlarni imzolash vaqtigacha, ulardan talab qilinuvchi barcha harakatlarni bajarishga majbur

IV. SOVRINLAR JAMG'ARMASI

19. Har oy, Aksiyani o'tkazish davrida, "BEKOLE-BIZNES" MCHJ Aksiyaning 5 (besh) nafar g'oliblari orasida 5 (besh) million so'mdan sovrinli o'yin o'tkazadi. Butun Aksiya davrida (1 noyabr 2020 yildan 31 yanvar 2021 yilgacha) har biri 5 (besh) million so'mdan 15 (o'n besh) ta sovrin o'ynaladi.

V. AKSIYANI O'TKAZISH TARTIBI, SHARTLARI VA SOVRINLI O'YINLARNI O'TKAZISH JARAYONI

20. Aksiyada faqat bir marotaba g'olib bo'lish mumkin. Agar Aksiya Ishtirokchisi o'yinda 1 (bir) marta g'olib bo'lib, sovrin olsa, u holda Aksiya davrida takroriy ishtirok eta olmaydi va Aksiya ishtirokchilari ro'yxatidan o'chiriladi.

21. Sovrin g'oliblaridan tashqari yana 3 nafar Ishtirokchi asosiy g'oliblarning sovrindan voz kechishi ehtimolida, zahiradagi nomzodlar sifatida tanlanadi.

22. Tashkilotchi ("BEKOLE-BIZNES" MCHJ) Aksiya sovrinlarini olish bilan bog'liq har qanday soliq yoki yig'imni to'lash majburiyatini oladi.

23. G'olibning (jismoniy shaxs) plastik kartasiga pul mablag'larini ko'chirib o'tkazish yoki g'olib (yuridik shaxs) hisob raqamiga pul o'tkazish shaklidagi o'yin har oy, Aksiyani o'tkazish davrida - 10 dekabr 2020 yilgacha, 10 yanvar 2021 yilgacha va 10 fevral 2020 yilgacha, Facebook va Instagram ijtimoiy tarmoqlarda onlayn to'g'ridan-to'g'ri efirda, 5 (besh) nafar g'olibni tasodifiy tanlash (random) yo'li orqali, ushbu davrda GAZel Next mikroavtobuslarini xarid qilgan barcha Ishtirokchilardan shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha o'tkaziladi.

24. Aksiya natijalari va g'oliblari «<https://random.org>» tasodifiy sonlar onlayn generatori yordamida, o'tkazilgan aksiya va uning natijalari bo'yicha protokolni rasmiylashtirish orqali aniqlanadi.

25. Aksiya sovrini g'olibiga, Tashkilotchi ("BEKOLE-BIZNES" MCHJ) SMS-xabar yuboradi yoki Ishtirokchi ko'rsatgan telefonlar orqali bog'lanadi.

26. Agar Aksiya g'olibining (jismoniy shaxs) plastik kartasi bo'lmasa, "BEKOLE-BIZNES" MCHJ xodimlari g'olibni O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida naqd pul ko'rinishidagi mukofotni topshirish uchun taklif etishadi.

27. Aksiya Ishtirokchilari orasidagi onlayn o'yin natijalari bo'yicha to'liq axborot Tashkilotchining www.autogaz.uz saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

28. Ishtirokchilar ularning ismi, sharifi, suratlari va boshqa ma'lumotlari Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday haq to'lanmasdan ishlatilishi mumkinligiga rozilik beradi.

29. O'tkazilgan o'yin va onlayn tanlash natijalariga ko'ra, rasmiy saytda to'liq FISH ko'rsatilgan g'oliblar e'lon qilinadi.

30. "BEKOLE-BIZNES" MCHJ mazkur Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega, buning uchun u o'zgarishlar haqida o'zining www.autogaz.uz saytida bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan 3 (uch) ish kunidan oldin e'lon berishi kerak. "BEKOLE-BIZNES" MCHJ sovrinlar ro'yxatini o'zgartirish yoki

kengaytirish huquqiga ega. Bank Ishtirokchining Aksiyadagi ishtiroki natijasida yuzaga kelgan yo'qotishlar, sarf-xarajatlarni qoplab bermaydi.

31. Mazkur Aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar, Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasida muzokara yo'li orqali, yaxshi niyatlar va hamjihatlik bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmasa, nizo sud tartibida ko'rib chiqiladi.

VI. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI

32. Mazkur Aksiya bo'yicha sovrinlar Ishtirokchi tomonidan "BEKOLE-BIZNES" MCHJ avtosalonida mukofotni berish bilan bog'liq barcha kerakli hujjatlar imzolanganidan keyin, G'olib (jismoniy shaxs) kartasiga/hisob raqamiga (yuridik shaxs) pul o'tkazish yo'li bilan beriladi. "BEKOLE-BIZNES" MCHJ avtosaloni manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko'chasi, 105 (mo'ljal O'zgarish ko'prigi). Aksiya Tashkilotchisining G'olibga sovrinni topshirish bilan bog'liq majburiyatlari ular g'olibga topshirilgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

33. Agar G'olib sovrinni olishdan voz kechsa yoki Aksiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida uni olish istagini bildirmasa, sovrin talab qilib olinmagan, o'yin g'olibining sovrinni olish huquqi esa yo'qotilgan hisoblanadi. Sovrinni olishdan voz kechgan yoki belgilangan muddatda sovrinni olish istagini bildirmagan o'yin G'olibi Tashkilotchidan ushbu muddat tugaganidan keyin talab qilib olinmagan sovrinni talab qilishga haqqi yo'q. Talab qilib olinmagan sovrin saqlab turilmaydi, berilmaydi, g'olib tomonidan talab qilib olinmaydi, Tashkilotchi mulkiga aylanadi va zahiradagi nomzodlarga (g'oliblar) beriladi.

34. Aksiya G'oliblari aniqlanganidan so'ng, pul mablag'i ko'rinishidagi sovrin Tashkilotchi tomonidan o'yin o'tkazilgan sanadan boshlab uch kun davomida g'olibning plastik kartasi/hisob raqamiga o'tkaziladi. Plastik kartasi bo'lmagan G'oliblarga pul ko'rinishidagi sovrin O'yin natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab besh ish kuni davomida beriladi.

VII. ISHTIROKCHILARNI AKSIYANI O'TKAZISH, AKSIYANI TO'XTATIB TURISH YOKI MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH SHARTLARI TO'G'RISIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

35. "BEKOLE-BIZNES" MCHJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida beriladigan reklama postlari orqali Aksiya Ishtirokchilari uni o'tkazish shartlari va tartibiga doir barcha yangiliklardan xabardor qilinadi.

36. Mazkur Aksiya haqidagi batafsil ma'lumot, shuningdek, Aksiya Qoidalari Tashkilotchining www.autogaz.uz rasmiy saytida joylashtiriladi.

37. Aksiya to'g'risidagi batafsil ma'lumotni quyidagi telefon orqali ham olishingiz mumkin: 71 2006161.

38. Aksiya muddatidan oldin tugatilsa, uni o'tkazish muddati uzaytirilsa yoki Qoidalarga o'zgartirishlar kiritilsa, tegishli axborot www.autogaz.uz saytida joylashtiriladi.